

SAMURAYLARNING FAXR VA FIDOIYLIK TARIXI

Adham Mavlonov

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, katta o'qituvchi.*

No'monov Kamronbek

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan Filiali, talaba.

Safoxon Mirzohidov

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali, talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada samuraylar tarixi, ularning maxsus sovutlari va katana qilichlari, jang maydonida birinchi bo'lishga intilishi, yuqori malakali raqiblar bilan kurashish maqsadlari, jangda mag'lubiyat yoki xo'jayinning halok bo'lishi holatida o'z joniga qasd qilish an'anasi, shuningdek, bushido axloq kodeksiga amal qilishlari hususida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Samuray, Bushi, Saburau, Janchi, Bushido kodeksi, Xarakiri, Imperator, Sulola.

Samuray mazkur atama tarixiy Yaponiyaning deyarli barcha jangchilariga nisbatan ishlatilgan. Ammo samuraylarning barchasi ham jangchi bo'lmagan. Ular shi-no-ko-sho tetragramma bilan ifodalangan jangchilar, dexqonlar, hunarmandlar va savdogarlar jamiyatning yuqori o'rnida turishgan. Ular shubhasiz harbiy guruh bo'lishgan lekin ko'plab samuraylar adabiyot va san'at odamlari sifatida tanilgan.¹ Samuray so'zining paydo bo'lishi haqida turli xil nazarya mavjud. Lekin ular orasida ikki xil nazarya ko'plab tarixchilar qo'lab quvatlaydi. Hususan Ingilis tarixchi Anthony J Bryant "The Samurai" nomli asarida Samuray atamasiga ikki xil tariff beradi. Samuray so'zi "saburau" so'zidan olingan bo'lib "xizmat qilish" degan ma'noni anglatadi. Saburau so'z bugungi kunda armiyada xizmat qilish yoki uy xizmatchilariga nisbatan ham qo'llaniladi. Samuray so'zining paydo bo'lishi haqida ikkinchi nazaryaga ko'ra samuray atamasi "bushi" so'zidan kelib chiqan bo'lib jang qiluvchi degan ma'noni anglatadi.² Mening fikrimcha samuray atamasi saburau so'zidan olingan. Buning asosiy sababi shundaki hukumdor Nara davrida aniqroq aytadigan bo'lsak milodiy 701-yilda yuzaga kelgan Tayho kodeksi hisoblanadi.³ Tayho kodeksiga ko'ra markaziy hukumatni boshqarish orginlarini tuzishgan. Tayxo kodeksi imperator byurokratlarining aksariyatini 12 darajaga ajratdi, ularning har biri ikkita kichik darajaga bo'lingan, 1-darajali imperatorning eng yuqori maslahatchisi. 6-darajali va undan past bo'lganlar "samuraylar" deb atalgan va kundalik ishlar bilan

¹ Anthony J. B, Angus M. The Samurai. Osprey publishing, London, 1989, 3-5b.

² <https://en.wikipedia.org/wiki/Samurai#History>

³ <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/tayho-kodeksi/>

shug'ullanganlar .

Samuraylarning o'ziga xos maxsus Bushido kodeksi mavjud bo'lgan. Bushido (yapon tilida jangchining yo'li) degan ma'noni anglatadi. Bushidoning eng muhim tamoyillari sintoizmdan olingan bo'lib, u tabiatga sig'inish, ajdodlar ruhiga ishonish, sehrga ishonish sintoizimning asosi xisoblanadi. Bushido XII-XIII asrlarda axloqiy qadriyatlar va unga kiritilgan san'atga hurmat tufayli, samuraylar sinfining olijanob jangchilar sifatida rivojlantiradi. Bushido XVI asrlarda samuraylar axloq kodeksi sifatida shakllandi. Samuraylar axloq kodeksining asosi har doim har joyda birinchi bo'lish ayniqsa jang maydonida birinchi bo'lishni talab etgan. Tarix fanlar doktiri Sarimsoqov Abdulativ va Dexqonov Narimonning Jaxon Tarixi (Osiyo va Afrika mamlakatlarning O'rta asrlar tarixi) nomli asarida Samuraylar axloqiy kodeksi haqida ko'plab ma'lumotlar bergan. Ularning fikricha samuraylar dastlab faqat jang uchun tayyorlangan. Jangda ularning maqsadi shuhrat qozonish undan keyin o'ljaga ega bo'lish hech bo'lmaganda ho'jayinidan taqdirlanishni maqsad qilgan. O'sha davrlarda samuraylar uchun raqibsiz qolish juda ham sharmandalik hisoblangan. Har bir samuraylar o'z raqibini o'zidan ulug'vorroq bo'lishini xohlagan. Masalan odiy askarlar qo'mondonlar bilan jang qilishni orzu qilganlar. Bunday raqib ustidan qozonilgan g'alaba yanada ko'proq shuhrat keltirgan. Jangda samuraylar, albatta o'zlarini tanishtirgan. O'z nomining tarixda qolishi va uni hurmat bilan eshlari samurayni jasur, qahramon bo'lishga chorlagan.⁴ Agar nomini g'alaba bilan shuhrat qozontira olmasa matonat bilan o'limni qarshi olsa ham qahramon bo'lgan.⁵

O'z –o'zini o'ldirish — xarakiri deb ataladi. Xarakiri yapon tilida qorinni kesmoq degan ma'noni anglatadi.⁶ Buning asosiy sababi samuraylar ruhlaring inson qornida joylashganiga ishonishigan. Xar bir samura jangda mag'lub bo'lsa yoki ho'jayini jangda halok bo'lsa ko'plab samuraylar o'zlarini o'ldirgan. Lekin ho'jayini jangda o'lsa yoki jangda mag'lub bo'lsa ham yashashi mumkin bo'lgan, yani xarakiri majbur bo'lmagan. Xar bir samuray xarakiridan oldin o'zining sevimli taomini istemol qilib so'ngra sher yozadi, oxirgi marta o'z sherini o'qiydi va o'zini o'ldiradi. O'z xo'jayiniga sadoqat unga doimiy xizmat qilishdangina emas, shuningdek uning uchun har qanday vaqtda o'limga tayyor turishdan ham iborat.⁷ O'z joniga qasd qilish tashqi tomondan juda ham yoqimsiz holat bo'lib ko'rinishi mumkin aslida ham shunday. Lekin samuraylar xarakirini haqiqiy jasorat, shaxsiy qahramonlikni namoyish qilish, o'zini boshqara olishini, ichki xotirjamlik va mukamalikni ko'rsatishning oliy

⁴ Adham Mavlonov, & Safoxon Mirzohidov. (2024). "UZBEK CULTURAL HERITAGE: PRESERVING TRADITIONAL SONGS IMPORTANCE AND METHODS". *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(8), 20–26. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5848>

⁵ Sarimsoqov A.A., Dexkanov N.B. " O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI " -Toshkent, 2021. **106–bet**

⁶ <https://uzpedia.uz/pedia/xarakiri>

⁷ Sarimsoqov A.A., Dexkanov N.B. " O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI " -Toshkent, 2021. **107–bet**

namunasi hisoblangan⁸. Xarakiri XIV asrga kelib yaponiyada milliy o'z joniga qasd qilish uslubiga aylanadi. Samuraylarni yoshlikdan «Hayot — oqqush patidan ham yengilroqdir» degan g'oya asosida tarbiyalagan.⁹ Bunday g'oya ostida tarbiyalangan bollalar juda ham jasur va sadoqatli samuray bo'lishgan va ular hech ham o'limdan qo'rqishmagan. Samuraylar har doim bir so'zli jangchilar bo'lishgan. Agar o'z so'zlarini ustidan chiqa olmasa barmoqlarini kesishgan. Samuraylarning mukammal ko'rinishi qattiqqo'l, yovvoyi jasoratdangina emas, yapon ritsari nafaqat «kuchli va qo'rqmas» balki «ta'sirchan va shafqatli» bo'lishi ham lozim edi. Samuray, ayniqsa o'z o'g'lining tarbiyasiga katta e'tibor bergan - vorisi otasining shuhratini davom ettiradigan davomchi bo'lishi juda muhim bo'lgan. Samuraylar o'zlarini ma'budlarning ixtiyoriga to'liq topshirgan. Jangchi taqdiri, omad yoki omadsizlik, hayot yoki o'lim jang jarayoniga bog'liq bo'lgan. Beqarorlik yaratish uchun insonlarning taqdirini xudolar belgilaydi, muvaffaqiyat yoki mag'lubiyat ularning xohishiga bog'liq degan tushunchani shakllantirgan.¹⁰ Samuraylar, ayniqsa «sulolalar homiysi» - ma'bud «Udzigamiga» katta ixlos qo'ygan. Ularning fikricha, Udzigami eng avvalo, o'z sulolasini himoya qiladi. Shuning uchun biror ish qilishdan oldin samuraylar Udzigamiga murojat qilganlar. Samuraylar nafaqat xudolarga, qolaversa, shaytonlarga, turli ruhlarga, ayniqsa halok bo'lgan jangchilar ruhlariga ishongan. Aynan mana shu ruhlar eng yovuzlari hisoblangan. «O'ldirilgan jangchi o'z qotilidan qabrdan turib qasos olishi mumkin», deb o'ylagan.¹¹

Samuraylar o'z boshliqlari bo'lgan syogunlarga bo'ysunganlar. Syogun unvoni Yaponiyada 1192-yildan to 1867-yilgacha mamlakatda harbiy qo'shinni boshqargan. Bu unvonning vorisligining aniq tartibi yo'q edi - odatda syogun o'z o'g'illari orasidan merosxo'rnini tayinladi, agar merosxo'r bo'lmasa, yaqin qarindoshlaridan birini merosxo'r qildi.¹² Keyingi davrda ko'plab syogunlar mamlakatni bolaligida boshqara boshladilar, ularning mamlakatdagi o'rnini G'arbiy Yevropa monarxlariga o'xshash ramziy ma'noga ega bo'ldi. Syogun va imperator o'rtasidagi asosiy farq shundaki, syogun yer yuzidagi xudolarning timsoli emas, balki ma'muriyat boshlig'i va davlat qo'riqchisi hisoblangan. Syogun unvoni yetti asr davomida mavjud bo'lib uni bir nechta sulolalar egallagan:

Kamakura sulola: (1192-1333)

Minamoto sulolasi: (1192–1210) 3 syogun

Fujivara sulolasi: (1226–1252) 2 syogun

⁸ O'sha joyda

⁹ O'sha joyda

¹⁰ Sarimsoqov A.A , D exkanov N.B. " O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI " -Toshkent, 2021. **107-108-bet**

¹¹ Sarimsoqov A.A , D exkanov N.B. " O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI " -Toshkent, 2021. **108-bet**

¹² A. Mavlanov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818

Imperator knyazlari (Sinno): (1252–1333) 4 syogun

Kioto sulolasi – (1338-1573)

Ashikaga sulolasi: (1338-1573) 16 syogun

Edo sulolasi - (1603-1867)

Tokugava sulolasi: (1603–1867) 15 syogun

1573-yildan 1603-yilgacha o'ttiz yil davomida syogunlar deyarli bo'lmagan va mamlakatni Oda Nobunaga va Toyotomi Xideyoshi boshqargan. Ular o'zlaridan oldingi syogunlar kabi mutlaq hukmdorlar edilar, lekin sei-taishogun unvonini olmaganlar. Akechi Mitsuxide bundan mustasno edi, u imperator tomonidan rasman syogun sifatida tan olingan, ammo 13 kundan keyin Xideyoshi tomonidan taxtdan ag'darilgan. Gap shundaki, syogun faqat Minamoto urug'idan bo'lishi mumkin degan fikr keng tarqalgan edi.¹³

XIX asr o'rtalariga kelib Yaponiyada ocharchilik va qashoxlik yuzaga keldi. Mazkur davrda Yaponiya Tokugava sulolasi syogunati barqarorligiga putur yetdi. Ochlik va qashshoqlik tufayli dehqonlar mamlakatda bir qancha tartibsizliklar amalga oshirdi. 1858-yilda Yaponiya AQSH bilan savdo shartnomasini imzoladi, undan keyin Rossiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya va Gollandiya bilan ham hudi shunday shartnoma imzoladi. Mamlakatni G'arbga ochish haqidagi munozarali qaror imperatorni syogunatga qarshilik ko'rsatishga yordam berdi. Ko'plab samuraylar imperatorning hokimiyatini tiklashga chaqira boshladilar. Choshu va Satsumaning sulolalari Tokugava syogunatini ag'darib tashlash uchun o'zaro birlashdilar. 1868 yil boshida imperator Meydzi malakatni o'z qo'liga oldi va mamlakatga zamonaviy qurollar kirib keldi. Imperator syogunatga qarshi jang qildi. 1871-yilda feodalizm rasman tugatildi va tarixda bu janglar "imperator restavratsiyasi" nomi bilan qoldi. Keyinchalik, milliy qurolli kuchlar a'zolari va barcha samuraylardan tashqari barchaga qilich taqish taqiqlandi. Yangi Yaponiya milliy armiyasi 1870-yillarda bir nechta samuraylar qo'zg'olonlarini bostirdi, ba'zi norozi samuraylar yashirin, guruhlariga qo'shildi. Meydzi restavratsiyasidan so'ng, sintoizm Yaponiyaning davlat diniga aylantirildi va bushido axloq kodeksi sifatida qabul qilindi.¹⁴ Bugungi kunda Yaponiyada samuraylar uchun muzeylar mavjud. U yerda ularing maxsus sovutlari va qurol aslahalari saqlanmoqda.

Xulosa: Samuraylar Yaponiyaning eng mashhur jangchilari sifatida tanilgan bo'lib, ularning maxsus sovutlari va katana qilichlari jang maydonida o'zlarini ajratib turardi. Jang maydonida birinchi bo'lishga intilish va yuqori malakali raqiblar bilan kurashish maqsadi samuraylarning jangchilik faoliyatining asosiy tamoyillari edi. Bushido axloq kodeksi samuraylarning hayoti va jang uslubini belgilab, ular uchun sadoqat, jasorat va o'z joniga qasd qilish kabi prinsiplarni o'z ichiga olgan. Xarakiri,

¹³ <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D1%91%D0%B3%D1%83%D0%BD>

¹⁴ <https://www.pxu.org/cms/lib/AZ01001825/Centricity/Domain/6213/Brief%20History%20of%20the%20Samurai.pdf>

yoki o'z joniga qasd qilish, samuraylar uchun ruhiy va axloqiy mukammallikni ifodalovchi oliy namuna sifatida qabul qilingan. Samuraylarning tarixi va ularning mamlakatdagi roli XIX asrda yuzaga kelgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida sezilarli darajada o'zgargan, shu jumladan imperator Meydzi davrida amalga oshirilgan restavratsiya orqali. Bugungi kunda samuraylarning madaniy merosi Yaponiyada muzeylar orqali saqlanib, ular haqida ma'lumotlar to'plangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Anthony J. B, Angus M. The Samurai. Osprey publishing, London, 1989, 3-5b.
2. <https://en.wikipedia.org/wiki/Samurai#History>
3. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/tayho-kodeksi/>
4. Adham Mavlonov, & Safoxon Mirzohidov. (2024). "UZBEK CULTURAL HERITAGE: PRESERVING TRADITIONAL SONGS IMPORTANCE AND METHODS". Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(8), 20–26. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5848>
5. Sarimsoqov A.A , D exkanov N.B. " O'ZKITOB SAVDO NASHRIYOT MATBAA IJODIY UYI " -Toshkent, 2021. 106-bet
6. <https://uzpedia.uz/pedia/xarakiri>
- 7.
- A. Mavlanov, & S. Mirzohidov (2024). THE CULT OF WATER IN THE ANCIENT BELIEFS OF THE UZBEKS OF THE FERGANA VALLEY. Science and innovation, 3 (C1), 5-7. doi: 10.5281/zenodo.10471818
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A1%D1%91%D0%B3%D1%83%D0%BD>
9. <https://www.pxu.org/cms/lib/AZ01001825/Centricity/Domain/6213/Brief%20History%20of%20the%20Samurai.pdf>